

**BAHOLANADIGAN MAJBURIYATLARNI XALQARO  
STANDARTLARGA MUVOFIQ SHARTLI AKTIV VA SHARTLI  
MAJBURIYATLAR HISOBI**

*O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi huzuridagi*

*Fiskal instituti magistranti*

*Norbo'tayev Shohruh Jumanazarovich*

*Norbo'tayev\_sh@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalqaro standartlarga muvofiq baholanadigan majburiyatlar, shartli aktiv va shartli majburiyatlar hisobi, uning auditining tashkiliy asoslari, o'tkazish ketma ketligi, audit o'tkazish rejasi hamda dasturini ishlab chiqish bo'yicha masalalar ochib berilgan. Baholanadigan majburiyatlar, shartli aktivlar va shartli majburiyatlarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish mijoz korxonada faoliyati umumiy auditning bir qismi hisoblanadi. Uning maqsadi buxgalteriya hisoboti baholanadigan majburiyatlar, shartli aktivlar va shartli majburiyatlarning ishonchligi to'g'risida fikr shakllantirish va korxonada baholanadigan majburiyatlar, shartli aktivlar va shartli majburiyatlar bilan bog'lik muomalalarni hisobga olish hamda soliqqa tortish uslubiyotini tashkil etishning O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan me'yoriy xujjatlarga hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiqligini aniqlashdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Xalqaro standartlar, buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari, majburiyatlar, shartli aktiv va shartli majburiyatlar hisobi, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari, baholangan majburiyat, majburiyat, javobgarlik yuklaydigan hodisa, yuridik majburiyat, konstruktiv javobgarlik, shartli majburiyat, shartli aktiv, zarar keltiruvchi shartnoma, restrukturizatsiya

**Annotation:** This article reveals issues on the accounting of obligations, conditional assets and conditional obligations assessed in accordance with international standards, the organizational basis of its audit, the sequence of conduct, the plan for conducting an audit and the development of its program. Audit of assessed liabilities, conditional assets and conditional liabilities is part of the general audit of the activities of the client enterprise. Its purpose is to form an opinion on the reliability of the liabilities, conditional assets and conditional liabilities on which the accounting report is assessed, and to take into account the relationship with liabilities, conditional assets and conditional liabilities assessed at the enterprise, and to determine the compliance of the organization of taxation methodology with regulatory documents applicable in the Republic of Uzbekistan and international standards

**Keywords:** international standards, international standard of accounting, liability, conditional asset and conditional liability accounting, international standards of

financial statements, assessed liability, liability, liability-bearing event, legal liability, constructive liability, conditional liability, conditional asset, damaging contract, restructuring

## KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va liberallashtirish sharoitida xo‘jalikyurituvchi subyektlarda hisob obyektlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z vaqtida, to‘g‘ri va to‘liq shakllantirish masalalari muhim ahamiyatga ega. Shusababli, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda o‘rinli va haqqoniy ma‘lumotlarni shakllantirish, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holatini tahlil qilish hamda baholashda baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda resurslar taqchilligi muammosi moliyaviy aktivlardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Dunyo moliya bozorida moliyaviy aktivlarga bo‘lgan ehtiyoj kun sayin oshib bormoqda. Shu bois, xalqaro hisob amaliyotida “moliyaviy aktivlar” buxgalteriya hisobining muhim obyekt sifatida tan olinishiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Biroq, bugungi kunda xalqaro amaliyotda qo‘llanilayotgan moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda korxonalarining moliyaviy aktivlari to‘g‘risida ma‘lumotlari axborot foydalanuvchilarning talablariga to‘liq muvofiq, deb bo‘lmaydi. Shuningdek, moliyaviy aktivlar hisobini xalqaro standartlar talablariga moslashtirish, ushbu aktivlar hisobiga oid rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan milliy darajada samarali foydalanilishiga erishish barcha mamlakatlar uchun eng muhim va dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda korxonalar mablag‘laridan samarali foydalanish uchun debetorlik va kreditorlik qarzlarni o‘z vaqtida qoplanishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Korxonalarda muddati o‘tgan debetorlik va kreditorlik qarzlarni to‘g‘ri hisoblash va ularni to‘g‘ri tan olish muhim masalalardan biridir.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda barcha mamlakatlar jahon maydoniga qadam qo‘yishga hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga xarakat qilmoqda. Shu munosabat bilan 150 dan ortiq davlatlar hozirda MHXS dan o‘z moliyaviy holati haqida aniqroq ma‘lumot taqdim etish uchun foydalanishmoqda.

Iqtisodchi olimlar A.A.Karimov, M.Rahimov, I.Qo‘ziyevlar MHXS ga o‘tishning istiqbollari, A.Z.Avloqulov moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotlarni yuritish to‘g‘risida izlanishlar olib borishgan.

Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent S.N.Tashnazarov doktorlik disertatsiyasida (DSc) hisob va hisobotni xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish, va shu asosida moliyaviy hisobotning dunyo miqyosida garmonizatsiyasiga erishish, ilg‘or

tajribalardan milliy darajada samarali foydalanish zarurligi to'g'risida chuqur o'rganish va tahlillar olib borgan.

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori Jumanov.S.A. o'z doktorlik disertatsiyasida (PhD) bugungi kunda moliyaviy hisobotni takomillashtirishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish va uni joriy etish barcha mamlakatlar uchun dolzarbligi, jahondagi ko'plab mamlakatlar moliyaviy hisobot kompilyatsiyasi natijasida MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzishga o'tayotganlihaqida ta'kidlab o'tadi.

Jessika X.Yang, Nada Kakabadze va Dmitro Lazovskiylar moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining asosiy maqsadi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdir degan xulosaga kelishgan.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada jarayonida xalqaro standartlarga muvofiq baholanadigan majburiyatlar, shartli aktiv va shartli majburiyatlar hisobi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo'llanilgan xorijiy va milliy statistik rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlarida shartli majburiyat tushunchasi yo'q. Shartli majburiyat asosan xalqaro amaliyotda qo'llanilib, buxgalteriya hisobining xalqaro standartining BHXS 37-son "Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar" nomli standartida quyidagicha ta'rif berilgan:

*Baholangan majburiyat* – bu noaniq bajarish muddatiga yoki noaniq qiymatga ega bo'lgan majburiyatdir.

*Majburiyat* – bu tashkilotning bo'lib o'tgan hodisalardan yuzaga keladigan mavjud javobgarligi bo'lib, so'ndirilishi natijasida tashkilotdan o'zida iqtisodiy nafni mujassamlashtirgan resurslarning chiqib ketishi kutiladi.

*Javobgarlik yuklaydigan hodisa* – tashkilotning so'ndirishdan boshqa muqobil amaliy chorasi bo'lmasligi bilan natijalanadigan, yuridik yoki konstruktiv javobgarlikni yuzaga keltiradigan hodisadir.

*Yuridik majburiyat* – bu quyidagilardan yuzaga keladigan majburiyat:

- (a) shartnoma (unda aniq ko'rsatilgan yoki nazarda tutilgan shartlar asosida);
- (b) qonunchilik; yoki
- (v) boshqa huquqiy normalarning qo'llanishi.

*Konstruktiv javobgarlik* – tashkilotning quyidagi holatlardagi xattiharakatlaridan kelib chiqadigan majburiyat:



(a) oldingi shakllangan tajriba, eʼlon qilingan siyosat yoki yetarlicha aniq boʻlgan joriy bayonot asosida, tashkilot boshqa tomonlarga maʼlum javobgarliklarni oʻz zimmasiga olishini koʻrsatganligi; va

(b) buning natijasida, tashkilot oʻz zimmasiga olgan javobgarliklarni bajarishi yuzasidan boshqa tomonlarda asosli kutishlarni xosil qilishi.

*Shartli majburiyat* – bu oldingi hodisalardan yuzaga kelishi mumkin boʻlgan va uning mavjudligi faqatgina tashkilotning toʻliq nazorati ostida boʻlmagan kelgusi noaniq hodisalarning biri yoki bir nechtasi sodir boʻlishi yoki sodir boʻlmasligi natijasida tasdiqlanadigan ehtimolli javobgarlikdir.

Shartli majburiyat - bu:

(a) oldingi hodisalardan yuzaga kelishi mumkin boʻlgan va uning mavjudligi faqatgina tashkilotning toʻliq nazorati ostida boʻlmagan kelgusi noaniq hodisalarning biri yoki bir nechtasi sodir boʻlishi yoki sodir boʻlmasligi natijasida tasdiqlanadigan ehtimolli javobgarlikdir; yoki

(b) oldingi hodisalardan yuzaga keladigan mavjud javobgarlik, lekin ular tan olinmaydi, chunki:

(c) javobgarlikni bajarish uchun oʻzida iqtisodiy nafni mujassamlashtirgan resurslarning chiqib ketishining talab etilishi ehtimoli yoʻq; yoki

(d) javobgarlikning qiymati yetarli darajada ishonchli baholana olmaydi.

*Shartli aktiv* – bu oldingi hodisalardan yuzaga kelishi mumkin boʻlgan va uning mavjudligi faqatgina tashkilotning toʻliq nazorati ostida boʻlmagan kelgusi noaniq hodisalarning biri yoki bir nechtasi sodir boʻlishi yoki sodir boʻlmasligi natijasida tasdiqlanadigan ehtimolli aktivdir.

*Zarar keltiruvchi shartnoma* – bu shartnoma boʻyicha javobgarliklarni bajarish uchun muqarrar sarflar ushbu shartnoma boʻyicha olinishi kutilayotgan iqtisodiy nafdan oshib ketadigan shartnomadir.

*Restrukturizasiya* – bu rahbariyat tomonidan rejalashtirilgan va nazorat qilinadigan dastur boʻlib, quyidagilarni muhim darajada oʻzgartiradi:

(a) tashkilot tomonidan amalga oshiriladigan biznes koʻlamini; yoki

(b) ushbu biznes boshqarilishi tarzini.

Baholangan majburiyatlar hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun talab qilinadigan kelgusi sarflarning muddati yoki qiymatida noaniqlik mavjudligi jihatidan savdo kreditorlik qarzlari va hisoblangan majburiyatlar kabi boshqa majburiyatlardan farq qiladi. Qiyoslash uchun:

(a) savdo kreditorlik qarzlari – bu olingan yoki yetkazib berilgan tovarlar yoki xizmatlar uchun toʻlanadigan va yetkazib beruvchi tomonidan hisobvaraqa faktura taqdim qilingan yoki u bilan rasmiy kelishilgan majburiyatlardir; va

(b) hisoblangan majburiyatlar – bu olingan yoki yetkazib berilgan tovarlar yoki xizmatlar uchun toʻlanadigan, lekin xali toʻlov amalga oshirilmagan va yetkazib

beruvchi tomonidan hisobvaraqlar faktura taqdim qilinmagan yoki u bilan rasmiy kelishilmagan majburiyatlardir, shu jumladan xodimlarga to'lanishi lozim bo'lgan summalar (masalan, hisoblangan ta'til uchun xaqqlar). Ba'zida xisoblangan majburiyatlarning muddati va qiymatini baholash talab etilishiga qaramay, xisoblangan majburiyatlarning noaniqlik darajasi, odatda, baxolangan majburiyatlarga nibatan ancha pastdir.

Korxonalar o'rtasida bo'ladigan, shuningdek, kredit tashkilotlari va nazorat tashkilotlari o'rtasidagi hisob kitoblarda to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan vaqt bo'yicha farqlanishlar kelib chiqadi. Bunda korxonada tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlar kreditorlik majburiyatlari, olinishi lozim bo'lgan majburiyatlar esa debitorlik majburiyatlar hisoblanadi. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlariga quyidagicha sharh berish mumkin. Qarshi tamonga to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlar kreditorlik majburiyatlari, qarshi tamondan olinishi lozim bo'lgan majburiyatlar debitorlik majburiyatlari deyiladi.

Baholanadigan majburiyatlar, shartli aktivlar va shartli majburiyatlar auditorlik tekshiruvidan o'tkazish maqsadi buxgalteriya hisoboti debitorlik va kreditorlik bo'limining ishonchligi to'g'risida fikr shakllantirish va korxonada baholanadigan majburiyatlar, shartli aktivlar va shartli majburiyatlar bilan bog'liq muomalalarni hisobga olish hamda soliqqa tortish uslubiyotini tashkil etishning O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan me'yoriy xujjatlarga hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiqligini aniqlashdan iborat

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari hisob kitoblarning doimiy yo'ldoshi hisoblanadi. Lekin ularning to'lov muddatining oshib ketishi korxonalar moliyaviy ahxvoliga katta ta'sir o'tkazadi. Shu maqsadda korxonalar faoliyatini yuritishda debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini to'g'ri boshqarish masalasiga alohida ahamiyat beriladi.

Muddati o'tgan debitorlik majburiyatlarining oldini olish bevosita davlat nazorati va e'tiboridagi masala ham hisoblanadi. Negaki, korxonalar va tashkilotlar o'rtasida bo'ladigan o'zaro munosabatlarda majburiyatlarni tartiblash asosida davlat naqd pul muomalasini boshqarish va iqtisodiy tadbirlar rejasini tuzib chiqish chora tadbirlari belgilanadi.

Tahlil etishning asosiy maqsadi – debitorlik va kreditorlik majburiyatlari aylanish davrini tezlashtirish asosida korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash borasida chora-tadbirlar belgilashdan iborat. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari bo'yicha hisobot, ma'lumotnoma har oyning 1-sanasida tuzilib, tegishli tashkilotlarga topshiriladi. Ushbu ma'lumotnomadan korxonaning majburiyatlar balansini ham tuzish mumkin.

Biz yuqorida belgilagan edikki, korxonada debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining yuzaga kelishining asosiy sababi hisob kitoblarda to'lovlar



muddatining yoki sanasining turli hisobot davriga tushib qolishidir. Bunda debitorlik kreditorlik majburiyatlarining yuzaga chiqishiga har qanday holda ham yo'l qo'yiladi. Agarda mahsulotlar ortib jo'natish orqali sotiladigan bo'lsa bunda to'lovlar amalga oshish sanasiga qadar, agarda tovarlar pulini oldindan to'lash asosida sotiladigan bo'lsa bunda ham tovarlarni jo'natish sanasiga qadar majburiyat, qarz sifatida hisobda aks ettiriladi.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlar bo'yicha hisobot, ma'lumotnoma har oyning 1-sanasiga tuziladi va tegishli tashkilotlarga topshiriladi. Debitorlik va kreditorlik qarzlari korxonalar balansi, ya'ni har chorakda tuziladigan korxonalar aktivlari, kapitali va majburiyatlari holati to'g'risidagi hisobotda ham aks ettiriladi.

Korxonalarining debitorlik va kreditorlik qarzlariga baho berishda ularni balans holatiga keltirib o'rganish ham mumkin bo'ladi. Debitorlik va kreditorlik qarzlari balansi ular orasidagi o'zaro tenglik nisbatini xarakterlaydi. Bunda debitorlik majburiyatlarining kreditorlik majburiyatlaridan ortib ketishi yoki aksincha holatlari ifodalanadi.

Kreditorlik majburiyatlari qarshi tomonga korxonaning to'laydigan majburiyatlarini xarakterlaydi. Biz yuqorida uning tarkibiga nimalar kirishini va ularning yuzaga kelish sabablarini tarkiblab o'tgan edik. Kreditorlik majburiyatlarining yuzaga chiqishining asosiy sababi sifatida bevosita debitorlik majburiyatlarining vaqtida kelib tushmasligini ham tarkiblash mumkin.

Kreditorlik majburiyatlarining tarkibi tahlilida qarzdor bo'lgan tomonlar bo'yicha majburiyatlarning qatorlanishi, ularni to'lash muddatlari bo'yicha tarkiblanishiga baho beriladi. Shuningdek, debitorlik majburiyatlarining aylanish koeffitsiyenti va aylanish davrini aniqlashdagi kabi bunda ham kreditorlik majburiyatlarining aylanishi koeffitsiyenti va davri aniqlanadi. Lekin, bunda qatnashuvchi ko'rsatkichlar farqlanadi. Kreditorlik majburiyatlari aylanishini o'rganishda assosiy ko'rsatkichlar sifatida nasiyaga olingan yoki hali puli to'lanmagan mollar, ashg'lar, ish va xizmatlar summasiga hamda kreditorlik majburiyatlarining haqiqiy ko'rsatkichlariga murojat qilinadi.

Tashkilotning kelgusi xatti-harakatlaridan (ya'ni kelgusidagi faoliyatni amalga oshirishidan) mustaqil tarzda, o'tgan hodisalar natijasida yuzaga keladigan javobgarliklarga baholangan majburiyatlar sifatida tan olinadi. Bunday javobgarliklarga tashkilotning kelgusi xatti-harakatlaridan qat'iy nazar so'ndirish uchun o'zida iqtisodiy nafni mujassamlashtirgan resurslarning chiqib ketishiga olib keladigan jarimalar yoki atrof-muhitga noqonuniy yetkazilgan zararni bartaraf etish sarflari misol bo'la oladi. Shunga o'xshash, tashkilot neft qazib oladigan qurilma yoki atom elektrostansiyasini foydalanishdan chiqarish bo'yicha sarflari uchun, tashkilot yetkazilgan zararni qoplab berishga javobgarligi darajasida baholangan majburiyatni tan oladi. Aksincha, tijorat bosimlari ostida yoki qonuniy talablar sababli tashkilot

kelgusida muayyan yo'nalishda faoliyat yuritish uchun sarflarni amalga oshirishni rejalashtirishi yoki bunday sarflarni amalga oshirishi zarur bo'lishi mumkin (masalan, muayyan turdagi zavodda tutunga qarshi filtrlarni o'rnatish). Tashkilot o'zining kelgusi xatti-harakatlari yordamida, masalan faoliyat yuritish usulini o'zgartirish orqali, kelgusi sarflarni chetlab o'tishi mumkinligi sababli, unda kelgusi sarflar uchun hech qanday mavjud javobgarlik bo'lmaydi va hech qanday baholangan majburiyat tan olinmaydi.

Javobgarlik uning mavjud bo'lishi xar doim boshqa bir tomon oldida ekanini nazarda tutadi. Lekin, bu tomon aynan kim ekanligi muhim emas – aslida, javobgarlik butun jamiyat oldida vujudga kelishi ham mumkin. Javobgarlik har doim boshqa tomon oldidagi shartnomaviy majburiyatni nazarda tutganligi sababli, rahbariyat yoki direktorlar kengashining qarori, agar ushbu qaror hisobot davri oxiridan oldin ta'sirlanadigan tomonlarga, ushbu tomonlarda tashkilot o'z zimmasiga olgan javobgarliklarni bajarishi yuzasidan asosli kutishlar xosil qilinganini yetarlicha aniq tarzda yetkazilmagan bo'lsa, hisobot davri oxirida konstruktiv javobgarlikni keltirib chiqarmaydi.

Javobgarlikni darhol keltirib chiqarmaydigan hodisa, qonunchilikdagi o'zgarishlar yoki tashkilotning konstruktiv javobgarlikni yuzaga kelishiga sabab bo'ladigan xatti-harakati tufayli (masalan, yetarlicha aniq ijtimoiy bayonot), uni keyingi sanada yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, atrof-muhitga zarar yetkazilganda uning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha javobgarlik yuzaga kelmasligi mumkin. Lekin, yetkazilgan zarar, uni bartaraf etish yangi kiritilgan qonunlarda talab qilganida yoki tashkilot konstruktiv javobgarlikni keltirib chiqaradigan shaklda zarar bartaraf etish bo'yicha javobgarlikni ommaviy tarzda o'z zimmasiga olganda, javobgarlik yuklaydigan hodisa hisoblanadi.

Taklif etilgan yangi qonunning tafsilotlari hali oxirigacha yakunlanmagan bo'lsa, javobgarlik yangi qonun loyihasida keltirilgan tahrirda amal kilishi deyarli aniq bo'lganda, yuzaga keladi. Mazkur standart maqsadlarida, bunday javobgarlik yuridik javobgarlik sifatida qaraladi. Qonun xujjatlarini qabul qilish tartibidagi farqlar, qonun xujjatlarining qabul qilinishini deyarli aniq ta'minlaydigan yagona hodisani aniqlashning imkonsizligiga olib keladi. Ko'p holatlarda, qonun xujjati rasmiy qabul qilinmaguncha uning qabul qilinishini deyarli aniq deb bo'lmaydi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib, shuni aytishimiz mumkinki, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati davomida majburiyatlar tushunchasi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida qo'llanilgan majburiyatlar tushunchasi bilan taqqoslanganda, bir qancha farqlar aniqlandi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida majburiyatlar hisobini tashkil etishda buxgalteriya hisobining to'liq oshkor qilish, moddiylik, ehtiyotkorlik tamoyillari asosida moliyaviy hisobotlarda aks ettiriladi.



Mazkur baholashda baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar rhisobini to'g'ri tashkil etish, tan olish va baholash, hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki, milliy hisob va hisobot tizimimizga baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar tushunchasi yangi kirib kelayotgan iqtisodiy kategoriyalardan hisoblanib, ular milliy hisob va hisobot tizimimizda faoliyat yurituvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotida aks ettirilmasdan kelinmoqda.

Buxgalteriya hisobi milliy tizimlarida ham shunday tamoyillar asosida majburiyatlar hisobini yuritishni, buxgalteriya hisobining xalqaro standartining 37-son "Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar" nomli standartini "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun doirasida buxgalteriya hisobi milliy tizimiga joriy etishni tavsiya etamiz. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga mos ravishda hisob yuritilsa, xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlanadi va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlari kengaytiriladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Auditorlik faoliyati to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining 25.02.2021 y. O'RQ-677-sonli Qonuni
2. Urazov K.B., Po'latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.: «Innovation rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2020, 564 bet.
3. Аудит. Ўқув қўлланма /Тўлахўджаева М.М., Жўраев Т.И, Гулямова Ф.Г.ларнинг умумий тахрири остида. – Т.: БАМА нашр. Маркази. 1 том
4. Дузмуродов Р.Д. Аудит асослари. Дарслик.: Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2003;
5. Туйчиев А.Ж. Мажбуриятлар бухгалтерия ҳисоби ва таҳлилининг назарий методологик муаммолари. Диссертация. и.ф.д. – Тошкент. 2011. 71-б.
6. Мусаев Ҳ.Н. Аудит. Дарслик. – Т.: Молия, 2003
7. Djabbarova, Ch., & Abdullayeva, N. (2022). BHMS va MHXS konvergentsiyasi sharoitida majburiyatlar hisobini takomillashtirish. *Novyye Uzbekistan: uspehnyy mejdunarodnyy o'p'yt vnedreniya mejdunarodnyx standartov finansovoy otchetnosti*, 1(5), 266-269.
7. Уразов К.Б. Бошқа тармоқларда бухгалтерия ҳисобининг хусусиятлари. Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган 2-нашр.- Т.: «Фан ва технология», 2019. – 540 б.
8. Ташназаров С.Н. Молиявий бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи: халқаро ва миллий жиҳатлар. Монография. - Т.: Иқтисод-молия, 2009. - 168 б.;
9. Чайковская, Л. А., & Якушева, Ю. А. (2007). Организационные и методологические подходы к отражению условных активов и обязательств хозяйственной деятельности. *Международный бухгалтерский учет*, (2), 33-48.



10. Чайковская, Л. А., & Якушева, Ю. А. (2006). Организационные и методологические подходы к отражению условных активов и обязательств хозяйственной деятельности. Все для бухгалтера, (21), 16-27.
11. Rajabova, N. U. (2023, April). “Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar”(bhxs 37) standartning o ‘ziga xos xususiyatlari. In Proceedings of International Educators Conference (Vol. 2, No. 4, pp. 1-4).
12. Djabbarova, Ch., & Abdullayeva, N. (2022). BHMS va MHXS konvergentsiyasi sharoitida majburiyatlar hisobini takomillashtirish. Novyye Uzbekistan: uspehnyy mejdunarodnyy opyt vnedreniya mejdunarodnyx standartov finansovoy otchetnosti, 1(5), 266-269.
13. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari
14. <http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
15. <http://www.mf.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti
16. <http://www.soliq.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi sayti
17. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti